

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA SUN'iy INTELLEKT ORQALI TALABALARGA INGLIZ TILIDA GAPIRISHNI O'RGATISH**

***Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi***

*Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o'rganish uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib bermoqda. Sun'iy intellekt (AI) o'rganish yondashuvini tubdan o'zgartirib, uni yanada qulayroq qiladi va shaxsiy maqsadlaringizga yo'naltiradi. AI yordamida o'quv jarayonini sermazmun tashkil etish shuningdek, tezkor fikrmulohazalarni olish mumkin, bu esa taraqqiyotni tezlashtiradi. Bu maqolada biz ingliz tilini o'rganish uchun sun'iy intellekt vositasidagi eng samarali usullarni ko'rib chiqamiz. Shuningdek, SI yordamida mustaqil o'rganishning afzallikkari va ehtimoliy pedagogik chekllovlar muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ingliz tili, muloqot, raqamli texnologiyalar, talaffuz, chatbot, til kompetensiyasi, interaktiv ta'lif, ovozli texnologiyalar, mustaqil o'rganish.

**Abstract.** Modern technologies creat new opportunities to learn communicate fluently in English . Artificial intelligence (AI) radically transforms the learning approach, making it more convenient and personalized to individual goals. With the help of AI , it is possible to organize the learning process efficiently and receive rapid feedback. This article examines the most effective methods of learning English through AI tools. It also discusses the advanmtages and possible pedagogical limitations of independent learning using AI.

**Keywords:** artificial intelligence, English, communication, digital technologies, pronunciation, chatbot, language competence, interactive education, voice technologies, independent learning.

### **KIRISH**

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari ingliz tilini o'rganish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. AI vositalari individual o'quv dasturlarini yaratish, grammatik xatolarni tuzatish, yangi so'zlarni eslab qolishni osonlashtirish hamda real suhbatlarda mashq qilish imkonini beradi. Babbel, Duolingo, Grammarly, Quizlet va ChatGPT kabi ilovalar til o'rganish jarayonini individuallashtiradi va uni qiziqarli hamda interaktiv holga keltiradi. Sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchilarga mustaqil va ishonchli ravishda ingliz tilini o'zlashtirishda katta yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt vositalari orqali ingliz tilida erkin so'zlashishni o'rgatish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Maqolaning maqsadi — SI texnologiyalarining aynan muloqot ko'nikmalarini

shakllantirishdagi rolini aniqlash va uni amaliy ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish yo'llarini ko'rsatishdir [2].

### **Sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi o'rni:**

U ta'lim sifatini oshirishga, o'qituvchi va talabalar orasidagi muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari sun'iy intellekt o'rganish jarayonini yanada qulayroq hamda qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi. Har bir talaba sun'iy intellekt orqali mavzuni mustaqil o'rganish imkonoyatiga ega. Sun'iy intellekt (keyingi o'rnlarda AI) ta'limda bir nechta rol o'ynaydi:

- Shaxsiylashtirilgan ta'lim: AI o'quv materiallari va tezligini individual talabalar ehtiyojlarivao'rganish uslublariga moslashtirib, moslashtirilgan o'rganish tajribasini taqdimetishi mumkin.
- Intellektual repetitorlik tizimlari: Sun'iy intellektga asoslangan repetitorlik tizimlari o'quvchilargazudlik bilan fikr-mulohaza va yo'l-yo'riq berib, ularga qiyin tushunchalarni tushunish va malakalarinioshishga yordam beradi.
- Virtual yordamchilar: Sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan virtual yordamchilar savollargajavob berish, eslatmalarni taqdim etish hamda kurs va topshiriqlar bo'yicha ko'rsatmalar berishorqalitalabalarga ham, o'qituvchilarga ham yordam berishi mumkin.
- Ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirish: AI baholash, rejalashtirish va hisobni yuritishkabima'muriy vazifalarni soddalashtirishi mumkin, bu esa o'qituvchilarning o'quvchilarni o'qitishvaulargamaslahat berishga e'tibor qaratish uchun vaqtini bo'shatish imkonini beradi.
- Foydalanish imkoniyati: AI texnologiyalari matndan nutqqa, nutqni aniqlashvaboshqajoylashtirish vositalarini taqdim etish orqali nogiron o'quvchilar uchun ta'limni yanada qulayroq qilishi mumkin.
- Til o'rganish Sun'iy intellekt asosidagi til o'rganish platformalari individual o'quvchilarningehtiyojlariga moslashtirilgan interfaol darslar, talaffuz bo'yicha fikr-mulohazalar va til amaliyot mashqlarini taqdim etishi mumkin.

Umuman olganda, sun'iy intellekt o'rganishni shaxsiylashtirilgan, qulay va samarali qilishorqalita'limni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Shuningdek, ingliz tilini o'rgatishda hamda mustqail o'rganishdasun'iy intellektning o'rni beqiyos. Turli xil ingliz tilini o'rgatishga qaratilgan platformalar Duolingo, Englishclass, Memrise, BBC Learning English, Lingoda kabilar sun'iy Intellekt asosiga qurilgan hisboblanadi. Bu orqali o'rganish soddarroq hamda qiziqarliroq kechadi. Misol uchun, hozirgakunda Duolingo platmorfmasi ko'plab til o'rganuvchilarni qamrab oladi hamda ular bu platforma orqali tilnisodda tarzda o'rganishyapti. Duolingo (duolingo) -mustaqil til o'rganish uchun onlayn loyiha (2012-yil iyunoyidaboshlangan). Uni rivojlantirish va yaratish g'oyasi amerikalik professor Lui fon Andan tomonidan kelibchiquqan. Bu loyihaning asl mohiyati odamlarga bepul til o'rgatish va

ularning tarjima ishlarini olibborishga yordam berishdir. Hozirgi paytda, internet ma'lumotlarining 70 foizi ingliz tilida. Bu loyihaning til o'rgatishdan asl mazmuni o'z ona tilida topolmagan ma'lumotlarni boshqa tillardatopishchun imkon

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari ingliz tilini o'rganish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. AI vositalari individual o'quv dasturlarini yaratish, grammatik xatolarni tuzatish, yangi so'zlarni eslab qolishni osonlashtirish hamda real suhbatlarda mashq qilish imkonini beradi. Babbel, Duolingo, Grammarly, Quizlet va ChatGPT kabi ilovalar til o'rganish jarayonini individuallashtiradi va uni qiziqarli hamda interaktiv holga keltiradi. Sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchilarga mustaqil va ishonchli ravishda ingliz tilini o'zlashtirishda katta yordam beradi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning o'rni juda katta va shu bilan birga o'sishda davom etmoqda. AI. Ta'lim va chet tillarini o'rgatish sohasida katta imkoniyatlarga ega. Raqamli tehnologiyalar asrida voyaga yetayotgan avlod vakillari uchun bu uslub ham til o'rganishda dasturi amal xizmat qiladi . 2021-yilning 17 fevral kuni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish choratadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi, ko'zlangan maqsad – "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlarning yuqori sifatini ta'minlash, malakali kadrlar tayyorlash. sun'iy intellektning chet tillarini o'qitish sohasidagi yutug'i xorijiy tilni o'rgana olmaslik muammosiga yechim bo'ladi. Ingliz tili o'rganishda inson tomonidan ko'p vaqt sarflash orqali bajariladigan vazifalarni sun'iy intellekt bir necha soniya ichida bajaradi hamda ushbu til o'rganish jarayonini yanada mazmunli tashkil etadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mamadieva Bakhtiyor qizi, F., Mukhiddinova Sharofiddin qizi, O., & Abduraimov Anvar ogli, S. (2020). Digital pedagogy and online assessment in ESL. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 10(10), 201-204.
2. National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine. (2018). How People Learn II: Learners, Contexts, and Cultures. National Academies Press. Retrieved from <https://www.nap.edu/catalog/24783/how-people-learn-ii-learnerscontexts-and-cultures>
3. Pearson. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications. Retrieved from <https://www.pearson.com/content/dam/one-dotcom/one-dot-com/global/Files/news/news-announcements/2019>
4. Semantris от Google: как ИИ помогает учить английский играючи [Электронный ресурс]. Сообщество IT-специалистов Хабр [официальный сайт].
5. Almalki, M. (2022). Using Artificial Intelligence Tools to Improve EFL Learners' Speaking Skills: A Case Study of ELSA Speak Application. International Journal of English Language and Literature Studies, 11(3), 116–126. <https://doi.org/10.18488/11.v11i3.3101>.